


2020- yil yanvar-dekabr oylari davrida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent viloyatida jami **6930,6** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning mos davriga nisbatan **105,2 %**ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 4,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1121 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **123,5 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **57,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **116,8 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **6,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **142,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **36,5 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	01.01.2020- yil	01.01.2021- yil	
Toshkent viloyati	2971	4092	137,7
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	152	186	122,4
Olmaliq	187	224	119,8
Angren	223	328	147,1
Bekobod	153	183	119,6
Ohangaron	93	122	131,2
Chirchiq	240	316	131,7
Yangiyo'l	79	105	132,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	82	102	124,4
Ohangaron	63	81	128,6
Bekobod	101	115	113,9
Bo'stonliq	110	152	138,2
Bo'ka	79	188	237,9
Quy Chirchiq	72	98	136,1
Zangiota	198	303	153,0
Yuqori Chirchiq	175	230	131,4
Qibray	270	411	152,2
Parkent	94	107	113,8
Piskent	67	87	129,9
O'rta Chirchiq	180	232	128,9
Chinoz	88	142	161,4
Yangiyo'l	141	190	134,8
Toshkent	124	190	153,2



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.01.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi %da)



Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,0 %), Angren (8,0 %) va Chirchiq shaharlarida (7,7 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1388,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **102,9 %** oʻsish koʻrsatkiciga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 2,7 % punktga koʻpayib, **20,0 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **13,2 %**i yoki 2019- yilning mos davriga nisbatan **110,8 %**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **10,1 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **117,8 %**) va Yuqorichirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **6,8 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **105,8 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,6 %** to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **9,1 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **104,4 %**ni tashkil etgan holda **3787,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,4 %**ni tashkil etdi yoki **1755,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **109,0 %**ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **148,5** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan oʻsish surʼati **67,7** %ga teng boʻldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **6782,0** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **106,5** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **2,1** % va **97,9** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da





Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	6930,6	105,2	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	262,4	102,0	3,8
Olmaliq	303,6	100,5	4,4
Angren	272,3	100,7	3,9
Bekobod	281,8	101,0	4,1
Ohangaron	227,5	102,2	3,3
Chirchiq	310,3	100,1	4,5
Yangiyo'l	170,0	100,2	2,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	182,6	101,2	2,6
Ohangaron	185,8	102,8	2,7
Bekobod	190,6	103,9	2,7
Bo'stonliq	350,9	103,6	5,1
Bo'ka	170,0	101,6	2,5
Quyichirchiq	159,7	103,0	2,3
Zangiota	914,5	110,8	13,2
Yuqori Chirchiq	473,7	105,8	6,8
Qibray	699,1	117,8	10,1
Parkent	386,2	104,1	5,6
Piskent	193,7	101,9	2,8
O'rta Chirchiq	301,4	103,6	4,3
Chinoz	185,2	100,3	2,5
Yangiyo'l	276,0	100,4	4,0
Toshkent	433,2	105,2	6,3



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1
Zangiota
914,5

2

Qibray
699,1

3
Yuqori Chirchiq
473,7



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1
Yangiyo'l sh
170,0

2

Bo'ka
170,0

3
Quyi Chirchiq
159,7



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70